


63. Siniq chiziqlarning uzunligi, ko'pburchakning perimetri

Yondosh mavzu:
harakat va sport


Siniq chiziq, to'g'ri chiziq,
kesma,
tomonlar, perimetr




Yuqoridan ko'rinishi — ?



1. Mixlarga ilingan ipga ikki xil yuk osilgan.
Tortilgan ip qanday shaklga o'xshaydi?



Siniq chiziq lotin alifbosining bosh harflari
bilan belgilanadi.





Siniq chiziq AB , BC , CD , DE bo'g'inlardan iborat.

Siniq chiziqlarning uchlari: A , B , C , D , E .

Siniq chiziqlarning uzunligi – uning bo'g'inlari uzunligi yig'indisi.

2. Siniq chiziqlarning bo'g'inlarini o'lchang va ularning uzunligini
toping. Ushbu siniq chiziqlar nimasi bilan farqlanadi?



3. Yugurishda x nafar o'g'il bola, y nafar qiz bola va t nafar
o'qituvchi ishtirok etdi. Ushbu ifodalar nimani bildiradi?

$$x + y$$

$$x - y$$

$$x + y + t$$

$$(x + y) - t$$


63. Siniq chiziqning uzunligi, ko'pburchakning perimetri

Yopiq siniq chiziq o'zning ichki sohasi bilan birga ko'pburchak deb ataladi.


Ko'pburchakning uchi: A, B, C, D, E .

Ko'pburchakning tomonlari: AB, BC, CD, DE, EA .

Ko'pburchakning barcha tomonlari uzunliklari yig'indisi perimetr deb ataladi.



4. Maktab hovlisi atrofida yugurish bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi. Agar butun yo'nalishning uzunligi 900 m bo'lsa, yugurish yo'lagingning noma'lum qism uzunligini toping.




5. Ifodalarning qiymatlarini hisoblang.

$a + b + c$, bunda $a = 620$, $b = 117$, $c = 139$;
 $d - k + c$, bunda $d = 783$, $k = 226$, $c = 313$.

18



6. Uchburchak bir tomonining uzunligi 34 dm, ikkinchisining uzunligi birinchisidan 5 dm katta, uchunchisining uzunligi ikkinchisidan 7 dm kichik. Uchburchakning perimetrini toping.



7. Siniq chiziqni daftaringizga chizing. Siniq chiziqning barcha bo'g'inlarini o'lchang. Uning uzunligini toping va daftaringizga yozing.

